

“Og‘riq tishlar” dramasida ijtimoiy illatlarning fosh etilishi

Xaitboyeva Tamara Xushnud qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

ixtisoslashtirilgan maktabning Urganch filiali

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

thayitboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Abdulla Qahhorning “Og‘riq tishlar” dramasi tahlil qilingan. Dramada ko‘tarilgan mavzu, undagi obrazlar tahlili, ijtimoiy illatlarning qahramonlar timsolida ochib berilishiga to‘xtab o‘tilgan. Shuningdek, adabiyotshunoslarning ushbu dramaga munosabati o‘rganilgan.

Аннотация: В данной диссертации анализируется драма Абдуллы Каххора «Og‘riq tishlar». Рассматриваются поднятая в ней тема, анализируются образы героев, раскрываются общественные пороки в лицах героев. Также изучается отношение литературоведов к этой драме.

Abstract: This thesis analyzes Abdulla Qahhor's drama "Og‘riq tishlar". The theme raised in the drama, the analysis of the characters in it, and the disclosure of social vices in the person of the characters are discussed. The attitude of literary critics to this drama is also studied.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya va ocherklar, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo‘lgan dramaturgiya sohasida ham o‘z iste’dodini namoyish etdi. “Yangi yer” (yumoristik komediya), “Ayajonlarim” (lirik komediya), “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush” (satirik komediya) kabi komediyalar yaratib, o‘zbek dramaturgiyasining shuhratiga shuhrat qo‘shdi. Qahhor ijodini tadqiq etish silliq kechgan emas. Shaxsga sig‘inish va turg‘unlik yillarida ayrim mualliflar tomonidan adibning “Sarob”, “Qo‘shchinor”, “Tobutdan tovush” kabi asarlari teskari talqin etilib, asossiz qoralangan. Vaqt o‘tishi bilan bu “xato”lar tuzatilib, adib shaxsi, sermahsul ijodi yon bosishi qoralash kabi tuyg‘ularga berilmagan holda tekshirila boshladi.



Ozod Sharafiddinov asarini qahhorshunoslik rivojining o'ziga xos yakuni, deyish mumkin. Risola olimning "salkam chorak asrlik mushohada-mulohazalari, tadqiqotlari asosida tug'ilgan" bo'lib, u puxta reja, chuqur tayyorgarlik, katta mehr bilan qiziqarli yozilgan. U "Bolalik so'qmoqlarida", "Ilk izlanishlar", "Ikkinchi cho'qqi", "Kichik janrning katta olami", "Qalam yolqini", "Adib saboqlari", "Ulg'ayish yo'lida", "Sinchalak", "So'nggi sahifalar" nomli to'qqiz lavhadan tashkil topgan. Har bir lavhada ko'p qirrali katta mavzuning muhim bir jihati yoritiladi. Bu lavhalar mazmun va mantiq e'tibori bilan ichki aloqaga ega, biri ikkinchisini to'ldirib, boyitib keladi. Shu tariqa kitobda umumiy bir butunlik va tugallik hosil bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, irmoqlar azim daryoni hosil etganlaridek, O. Sharafiddinov kitobidagi katta-kichik lavhalar birlashib, yirik ilmiy asarni yuzaga keltirgan. A. Qahhor shaxsi va ijodiga oid ilmiy asarlar teran tahlilga tortilgan mazkur monografiyada adib asarlarining o'ziga xosliklari, badiiyati, yozilish tarixi, mavjud variantlari haqida muhim, qiziqarli fikrlar bildirilgan. Muallif tanqidchilikda "Sarob", "Qo'shchinor", "Sinchalak", "Tobutdan tovush" asarlarini baholashda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolarni dadillik bilan ochib tashlagan.¹

Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" (1954) 4 pardali komediyasida ham zamonaviy mavzu aks ettirilgan. Lekin asarda hayotdagi ijobiy tomonlar va ibratli kishilar emas, aksincha, har xil illatlar va nopok shaxslar birinchi o'ringa chiqarib ko'rsatilgan. Bu hol asarning janr xususiyati bilan bog'liq, albatta. Darhaqiqat, "Yangi yer" komediyasida xushchaqchaq kulgi — yumor kuchli bo'lsa, "Og'riq tishlar" pyesasida zaharxanda kulgi — satira ustun turadi. Ana shuning uchun ham "Og'riq tishlar" satiric komediya deb yuritiladi. Dramaturgning ustaligi shundaki, Zargarov singari nopok amalparastlar, Huzurjonov kabi xotin-qizlarga noto'g'ri munosabatda bo'luvchilar, Xumorxonga o'xshash muhabbatni oyoqosti qiluvchi yengiltak ayollarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi.

Pyesadagi tuman ijroqo'mi raisining o'rinbosari Ahadjon Zargarov o'z mansabini suiiste'mol qiluvchi, so'zi boshqa, ishi boshqa bo'lgan nopok amaldorlar obrazi. Zargarov amalga mingach, bosar-tusarini bilmay qoladi, o'zining o'n yetti yil birga turmush qurgan xotini Oqilaxon ustiga Xumorxon ismli yengiltak bir juvonga uylanadi.

¹ Mirzayev S. Abdulla Qahhor. — "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1990, 1-son.



Bolalarini tirik yetim qiladi. Marasuldan olgan pora evaziga uning nojo'ya qilmishlariga ko'maklashadi. Dramaturg Zargarovning, ayniqsa, oila mavzusida ma'ruza qilish uchun "tayyorlanishi" va minbarga chiqib sharmanda-yu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda satira o'tidan ustalik bilan foydalangan. Bu ko'rinishda personaj o'zini-o'zi fosh etadi. Umuman, Zargarov obrazi jonli va juda ishonarli chiqqan. Xususan, voqea davomida Zargarovning o'z qilmishidan pushaymon bo'lishi, murakkab ruhiy holatga tushib qolishi ta'sirli qilib ko'rsatilgan: "Qani endi shularning hammasi tushim bo'lsa-yu, uyg'onib ketsam!.. Qadamimni bilib bosardim. Shu vaqtgacha kalla deb jun chiqqan qovoqni ko'tarib yurgan ekanman!"² — deydi Zargarov asar oxirida.

"Og'riq tishlar" komediyasidagi tish doktori Marasul Huzurjonov — tashqi ko'rinishda o'ta madaniyatli kishi, aslida esa vijdotsiz, axloqiy buzuvchi, mol-mulkka hirs qo'ygan shaxs. Marasul hali o'quvchi Nasibani: "Men sizga qo'l cho'zganimda erkak bo'lib emas, bir tarbiyachi bo'lib qo'l cho'zdim. Men sizni universitetda o'qitaman, aspiranturada o'qitaman!.. Men sizni doktor qilaman, akademik qilaman"³, — deb yolg'on va'dalar bilan aldab, xotinlikka oladi. To'y o'tgach, Marasul Nasibani cho'riga aylantiradi. Komediya Xumorxon ham hayotiy tip. Bu obraz misolida mol-dunyoga uchib, sof muhabbatni oyoqosti qiluvchi yengiltak ayollar sharmanda qilinadi. Xumorxon turmushning ham, muhabbatning ham qadriga yetmaydi. U hayotning ma'nosini faqat kayf-safoda, maishatda, o'yin-kulgida deb biladi. Shu sababli Xumorxon Zargarovga ikkinchi xotin bo'lib tekkani holda, Marasul Huzurjonov bilan pinhoni uchrashib turadi. Zargarov ishdan olingach, u o'sha kuniyoq undan yuz o'giradi va yana boshqa birining etagini tutib ketadi.

Komediya Fotima — jonli, ishonarli obraz. Fotimaning butun dardi-o'yi qanday qilib bo'lmasin, boylik-dunyo yig'ishga qaratilgan. Fotima bu yo'lda hech narsadan qaytmaydi. U o'g'li Marasulga yo'l ko'rsatib: "O'zingni tillaga ur, onang aylansin Marasul, o'zingni tillaga ur!.. Nasibaning o'zi o'qishni xohlamasa, hech kim gap tegmaydi. Ozodlikka chiqqandan keyin xohlasa o'qiydi, xohlamasa qatiq

² Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 126-bet.

³ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 81-bet.

sotadi. Olib ketaver. Shuncha o'qipti bas, bundan ortiq o'qisa tepangga chiqib ketadi"⁴, — deydi.

“Og'riq tishlar” komediyasida Zargarov, Marasul, Xumorxon, Fotima singari satirik obrazlarga qarama-qarshi holda Zuhra, Oqila, Nasiba, Rohila, Po'lat domla kabi timsollar yaratilgan. Bular orasida eng puxta ishlangani, shubhasiz, Zuhra obrazidir. Zuhra — jonkuyar ayollar vakilasi. U har qanday masalaga adolat talabi nuqtayi nazaridan qaraydi. Zuhra o'z jiyani Marasul Huzurjonovning kirdikorlarini hech ikkilanmasdan ochib tashlaydi. Uni: “Bir ko'zing odamlarning tishida, bir ko'zing cho'ntagida-ku, yana qaysi ko'zing bilan o'qib, savod chiqargansan”⁵, — deb koyiydi. Zuhra — to'g'riso'z, adolatli ayol. U Marasul tomonidan aldangan Nasibani sidqidildan himoya qiladi va to'g'ri yo'lga boshlaydi. Shuningdek, Zuhra amalparast va ikkiyuzlamachi Zargarovni keskin fosh etadi. U Zargarovni Qo'qon xoni Xudoyorxonga o'xshatib: “Hozirgi Xudoyorxonlar shlyapa ham kiyar ekan, papka ko'tarib ham yurar ekan, qonunlarga chap berish, jamoatni chalg'itish uchun mana bunaqa joylarda minbarga chiqib, mast tuyadek, og'zidan ko'piklar ham sochar ekan!”⁶ — deydi.

Mazkur komediyaning nomi ham, undagi obrazlarning ismlari ham chuqur ma'no tashiydi. A. Qahhor asar nomini “Og'riq tishlar” deb qo'yar ekan, Zargarov, Huzurjonov, Xumorxon singari shaxslarning jamiyat uchun og'riq tishlar ekanligiga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'.Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 126-bet.
2. Mirzayev S. Abdulla Oahhor. — “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1990, 1-son.

⁴ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'.Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 89-bet.

⁵ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'.Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 124-bet.

⁶ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik / [Redkol.: O'.Umarbekov va boshq.]. 4-j. Ayajonlarim: Pyesalar. Portretlar. Felyetonlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 113-bet.